



ODAM OSHQOZONI SHILLIQ PARDASINING GISTOLOGIK TUZILISHI VA FUNKSIONAL O‘ZGARISHLARI

Eshkobilov Tura Jurayevich

Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti, Samarqand, O‘zbekiston.

Maxmudova Asal Djamshedovna

Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti talabasi, Samarqand, O‘zbekiston.

Annontatsiya: Ushbu maqolada Hazm sistemasi a’zolarining muhim bir organi hisoblangan oshqozon va uning morfologik-anatomik tuzilishi, gistalogik jihatdan tuzilishi tahlil qilinadi. Shuningdek, oshqozonning kimyoviy hamda fiziologik boradigan jarayonlari haqida, uning gumoral va nerv boshqarilishi haqida tushunchalar beriladi. Bu ma’lumotlar orqali hazm sistemasining organi bo’lmish oshqozon inson organizmida qanchalar muhim ekanligini bilib olish mumkun. Shuningdek, ushbu maqolada oshqozonning funksiyasining buzilishi sababli kelib chiqadigan turli xil klinik kasalliklar ochib yoritiladi, hamda bu kasalliklarni davolash turlari haqida chuqur ma’lumotlar beriladi.

Kalit so’zlar: Hazm qilish sistemasi, oshqozon, oshqozonning qismlari, oshqozonning o’ziga xos hujayralari, oshqozonning funksiyalari, oshqozonni nerv orqali boshqarilishi, oshqozoni gumoral yo’l bilan boshqarilishi, gastrit.

Kirish: Ovqat hazm qilish sistemasi — odam va hayvonlar organizmida oziq moddalarning qayta ishlanishi va hazm bo’lishini ta’minlaydigan organlar majmui. Odam va umurtqali hayvonlar Ovqat hazm qilish sistemasining tuzilishi oziqlanish xususiyati va sharoitiga bog’liq. Ovqat hazm qilish sistemasi. nayining oldingi qismi ixtisoslashib, og‘iz bo’shlig‘i, halqum va qizilo‘ngachni hosil qiladi. Og‘iz bo’shlig‘ida jag‘lar, tishlar, shilimshiq va so‘lak bezlari, til joylashadi. Ovqat hazm qilish sistemaning o’rta qismi hisobidan oshqozon, ingichka ichak, jigar, oshqozon osti bezi vujudga keladi.



Ovqat hazm qilish nayining keyingi qismi yo‘g‘on ichak, to‘g‘ri ichak va anal teshikdan iborat. Qizilo‘ngach, oshqozon, ingichka ichak va yo‘g‘on ichak birgalikda ovqat hazm qilish nayini hosil qiladi; uning devori shilimshiq, seroz va muskul qavatlaridan tashkil topgan. Evolyusiya jarayonida hayvonlar tanasining yiriklashuvi tufayli ovqat hazm qilish nayi shilimshiq qavati yuzasi har xil yo‘l bilan kengayib borgan. Ana shu tariqa juda ko‘p sonli mayda (ichak devori) yoki yirik (jigar, oshqozon osti) bezlar hosil bo‘lgan. Ovqat hazm qilish nayi shilimshiq qavati ostida himoya funk-siyasini bajaradigan limfoid follikulalar joylashgan. Ovqat hazm qilish sistemasi qon va limfa tomirlari bilan ta‘minlangan. Ovqat hazm qilish sistemasining funksional faoliyati murakkab neyro-gumoral va gormonal mexanizmlar orqali boshqariladi.

Odamda me‘da qorin bo‘shlig‘ida joylashgan bo‘lib, shakli loviyaga o‘xshaydi. Uning ko‘proq qismi chap tomondagi qovurg‘a osti sohasida, ozroq qismi esa qorin bo‘shlig‘i tepa bo‘lagining o‘rtasida turadi. Me‘da tanasining yuqori qismi (tubi) kengaygan va diafragma qaragan. Me‘dadan chiqish qism (pilorus) qorinning o‘rta chizig‘i orqasidan o‘ngga o‘tadi. Me‘daning kirish qismi qizilo‘ngachdan boshlansa, chiqish qismi 12 barmoq ichakka qo‘shiladi. Ovqat bilan o‘rtacha to‘lgan Me‘da yuqoridan jigarning pastki yuzasiga va diafragma; pastdan ko‘ndalang ichak va uning tutqichiga tegib turadi. Me‘daning botiq chekkasi (kichik qiyshaymasi) o‘ngga va yuqoriga, qavariq chekkasi (katta qiyshaymasi) chapga va pastga qaragan. Me‘dadan chapda - taloq, pastda va orqada - me‘da osti bezi bor. Me‘da hamma tomondan qorin pardasi bilan o‘ralgan. Me‘da sig‘imi har kimda har xil: yangi tug‘ilgan bolada 20-30 ml, o‘rta yoshdagi odamlarda 1-3 l; erkaklar me‘dasi ayollarnikiga nisbatan kattaroq bo‘ladi.

Me‘da devori shilliq, shilliq parda osti, muskul va seroz qavatdan iborat. Me‘da tashqaridan seroz parda bilan qoplangan. Uning ostidagi muskul qavati bo‘ylama (tashqi), ko‘ndalang va qiyshiq yo‘nalgan tolalardan tuzilgan. Shilliq parda osti qavati me‘daning muskul qavatini shilliq pardaga bog‘laydi. Bu qavat qon



tomir va nervlarga boy. Me'daning ichki yuzasi shilliq parda bilan qoplangan, bu pardaning burmalari ostida juda ko'p bezlar bor. Me'daga kirish qism (kardia) va tubdagi bezlardan shilimshiq, pilorus bezlaridan esa fermentlar ishlanib chiqadi. Me'da bilan 12 barmoq ichak chegarasida pilorus siquvchisi (sfinkteri) bor, u bir necha qavat sirkulyar muskullardan tuzilgan bo'lib, me'daning vaqti-vaqti bilan bo'shab turishini ta'minlaydi.

Oshqozon kasalliklari deganda oshqozonga ta'sir qiladigan kasalliklar tushuniladi. Oshqozonning har qanday sababga ko'ra infeksiyasi bilan yallig'lanishi Gastrit deb ataladi va oshqozon-ichak traktining boshqa qismlarini qo'shganda gastroenterit deb ataladi. Gastrit surunkali holatda davom etsa, u atrofik gastrit, pilorik stenoz (oshqozondan ingichka ichakning birinchi qismiga (pilorus) teshikning torayishi) va oshqozon saratoni kabi bir qancha kasalliklar bilan bog'liqdir.

Yana bir keng tarqalgan holat — oshqozon yarasi ya'ni shikastlanishidir. Yaralar oshqozon shilliq qavatini buzadi, bu oshqozon to'qimasini oshqozon kislotalaridan himoya qiladi. Peptik yaralar ko'p hollarda bakterial *Helicobacter pylori* (odatda oshqozonda topiladigan, gram-manfiy, mikroaerofil, spiral (spiral) bakteriya) infeksiyasidan kelib chiqadi. Epstein-Barr virusi infeksiyasi oshqozon saratonini qo'zg'atadigan yana bir omildir.

Gastrit morfologik tashxis bo'lib, klinik ekvivalentga ega bo'lmasligi va asimptomatik (simptomlarsiz) bo'lishi ham mumkin. Klinik tashxis, bemor tomonidan aytilgan shikoyatlar, funksional dispepsiya tashxisiga mos keladi. Bemorda epigastral og'riq sindromi yoki postprandial distress sindromi kuzatilsa tashxis aniq qo'yilgan bo'ladi. Biopsiyaning morfologik tekshiruv natijalarini ko'rmasdan surunkali gastrit tashxisini qo'yish mumkin emas, chunki surunkali gastrit potentsial saraton kasalligi bo'lib, bunday bemorlar guruhi tibbiy ko'rikdan o'tkazilishi kerak.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Afanasyev Yu. I. , Gistologiya, uchebnik. Moskva. 2012g
2. Alyaviya.O.T., Qodirov.Sh.Q. Normal Fiziologiya, Darslik.Toshkent.2007y
3. Bahhodirov.F.N. Odam Anatomiyasi, Darslik. Toshkent. 2006y
4. Oripov.F.S., Boykuziyev.X.X. Gistalogiya, Darslik. Samarqand. 2023y
5. Tursunov E.A. Gistologiya, O`quv qollanma. I qism.Toshkent. 2010 y.